

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG “UCHRASHUV”
SHE’RIDA LIRIK QAHRAMON ICHKI KECHINMALARI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg, shoir, ssenariynavis, dramaturg bo‘lib, 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Shoirdan biz yosh avlod, qolaversa o‘zbek var rus adabiyotiga 15 ta she‘riy to‘plam meros qolgan. U o‘sha davr ijodkorlaridan o‘zining sharq va g‘arb adabiyotini birlashtirish orqali yaratgan yangicha uslubi bilan ajralib turadi. Shuningdek, undagi yozayotgan har bir so‘ziga mas‘uliyat bilan qarash odati, inson ongostidagi, qalbining chuqur qatlamidagi hislarni nozik o‘xshatishlar bilan yoritib berish qobiliyati adabiyot ixlosmandlari tomonida doimiy ravishda olqishlar kelishiga sabab bo‘lgan. U tomonidan bitilgan she‘rlarining har bir misrasida olam-olam ma‘no yashirin, ularni o‘qib goh quvonchdan jilmayamiz, goh tasvirlangan hayot sinovlari g‘ussasini his etib o‘kinib yig‘lashni xohlaymiz. Ijodkor qalamiga mansub durdonalardan biri bo‘lmish “Uchrashuv” she‘ri ham yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan badiiy fazilatlarni o‘zida jamlagan bo‘lib, o‘zining adabiyligi, ta‘sirli kechinmalar tasviri bilan butun dunyo o‘quvchilari, xususan, o‘zbek kitobshinavandalari orasida yuksak madaniy qiymatga ega. Ushbu she‘r mana shoir vafotiga qariyb 17 yil bo‘lgan bo‘lsa-da, hali ham endi yozilgan paytidagi kabi mashhur. Bu maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Uchrashuv” she‘ridagi lirik qahramonning ichki kechinmalari tahliliga asoslangan.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg, a poet, screenwriter, and playwright, was born on November 2, 1939 in Tashkent. The poet left behind 15 collections of poetry for the younger generation, as well as for Uzbek and Russian literature. He stands out from the writers of that era with his new style, created by combining Eastern and Western literature. In addition, his habit of taking responsibility for every word he writes, and his ability to illuminate the feelings in the human subconscious and the deep layers of the soul with subtle analogies, have caused constant applause from literature lovers. There is a world of meaning hidden in each line of his poems, and when we read them, we sometimes smile with joy, and sometimes we feel the sadness of the life trials described and want to cry with regret. The poem "Meeting", one of the masterpieces of the creative pen, also combines the above-mentioned artistic qualities and, with its literary quality and touching description of experiences, has a high cultural value among readers all over the world, especially among Uzbek book lovers. Although it has been almost 17 years since the poet's death, this poem is still as popular as when

it was written. This article is based on an analysis of the inner experiences of the lyrical hero in Alexander Arkadevich Feinberg's poem "Meeting".

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг, поэт, сценарист и драматург, родился 2 ноября 1939 года в Ташкенте. Поэт оставил после себя 15 сборников стихов для молодого поколения, а также для узбекской и русской литературы. Он выделяется среди писателей той эпохи своим новым стилем, созданным путем сочетания восточной и западной литературы. Кроме того, его привычка брать на себя ответственность за каждое написанное слово и умение освещать чувства в человеческом подсознании и глубоких слоях души с помощью тонких аналогий вызывали неизменный восторг у любителей литературы. В каждой строке его стихов скрыт целый мир смысла, и, читая их, мы иногда улыбаемся от радости, а иногда чувствуем печаль описанных жизненных испытаний и хотим плакать от сожаления. Стихотворение «Встреча», один из шедевров творческого пера, также сочетает в себе вышеупомянутые художественные качества и, благодаря своему литературному качеству и трогательному описанию переживаний, имеет высокую культурную ценность для читателей во всем мире, особенно для узбекских книголюбов. Несмотря на то, что со дня смерти поэта прошло почти 17 лет, это стихотворение по-прежнему так же популярно, как и в момент его написания. Данная статья основана на анализе внутренних переживаний лирического героя в стихотворении Александра Аркадевича Файнберга «Встреча».

Kalit so'zlar: "Uchrashuv" she'ri, lirik qahramon, muhabbat, ishonch, umid,, ruhiy ziddiyatlar, ichki kechinmalar, romantik kayfiyat, ramziy obraz, falsafiy qatlam, metafora, psixologik holat, lirik konflikt, dramatik yakun.

Key words: The poem "Meeting", lyrical hero, love, trust, hope, spiritual conflicts, inner experiences, romantic mood, symbolic image, philosophical layer, metaphor, psychological state, lyrical conflict, dramatic ending.

Ключевые слова: Стихотворение «Встреча» лирический герой, любовь, доверие, надежда, духовные конфликты, внутренние переживания, романтическое настроение, символический образ, философский слой, метафора, психологическое состояние, лирический конфликт, драматический финал.

"Uchrashuv" Aleksandr Arkadevich Faynberg tomonidan yozilgan ilk she'rlardan biri sanaladi. Bu she'rni uchrashuvdan umidsizlikka yo'l desak ham also mubolag'a bo'lmaydi. Unda ajoyib o'xshatishlar orqali inson yuragida yuz berayotgan to'fon, so'g'inch hissi, uchrashuvga bo'lgan umidsizlik aks ettirilgan. Endi she'rni har bir qatorini tahlil qilish bilan lirik qahramon ko'nglidan ne tuyg'ular o'tayotganini ko'rib chiqsak.

Uchrashuvga va'dalashaylik,

Uchrashmoqlik emas-ku gunoh.

She'r xuddi shu misralar bilan boshlanadi.Unda ikki inson orasidagi uchrashuv umid sifatida tasvirlanadi."Va'dalashaylik" so'zi lirik qahramonning uchrashuvni rejalashtirishga bo'lgan istagini bildirib,iroda va umidni ifodalaydi.Ayni mana shunday boshlanish she'rga asosiy ruhni beradi.Faynberg qahramoni diydor ko'rishmoqlikka shunchalar mushtoqki,bunga to'siq bo'lishi mumkin omil yo'q deganday "Uchrashmoqlik emas-ku gunoh" jumlasini ta'kidlab o'tadi.

Qaygadir bosh olib ketaylik,

Odamlarning ko'zidan yiroq.

Bu qatorlar positiv kayfiyat chizig'i davomidir.Undagi "qaygadir" so'zi lirik qahramondagi yashirin ruhiy chekinish xohishini ifodalab beradi,ya'ni qahramon hayot ramkasidan chiqib,g'am-qayg'uni unutib,uzoqlarga ketishni xohlaydi."Odamlarning ko'zidan yiroq" uchrashuv jamoatchilikdan narida,shaxsiy ,dildan uchrashuvni nazarda tutish uchun ishlatilgan.Bu qator shu jihati bilan shaxsiylik va xohish motivini she'rga mujassamlashtiriyapti.

Gitara va skripka jo'r,

Sekingina taralar navo.

Bu misrada musiqa tasviri ko'zga tashlanadi-gitara va skripka shoirning romantik muhitni yaratish uchun ishlatgan badiiy quroli.Musiqa tasvirlanayotgan manzara haqidagi fikrni va kayfiyatni shakillantirish maqsadida aytilgan."Sekingina taralar" birikmasi esa muloyim,nafis kuy taralib turganini ko'rsatadi.Bu esa o'quvchi vazmin va samimiy kayfiyatni xis qilishiga o'z navbatida xizmat qiladi.

Ne tilasang, ofitsiant momo

Bir lahzada aylar muhayyo.

Ko'rib turganimizdek bu yerda "ofitsiant momo" jumlasini ishlatilgan.Endi bu birgina jumla butun bir she'rga zamonaviy ijtimoiy kayfiyatni beradi va bu real element she'rga hayotiy kontent beradi."Bir lahzada qilar muhayyo" birikmasiga e'tibor qilsak,bu tezda yetib keluvch qulaylikni bildiradi.Haqiqatan ham biz hozir va ayni shoir zamonida ham xohlagan narsamizga osongina erishganmiz va erishiyapmiz.

Sachrab o'ynar qordik ko'piklar,

Shampan-sharob ochilgan zamon.

Shampan-vino ko'piklarining "sachrab o'ynashi" shoir jonlantirish san'atdan foydalanish orqali o'quvchidagi qiziqishni yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi.Aynan shu "sachrab o'ynash" lirik qahramon xarakteridagi sho'xlikni oydinlashtirib kelyapti.Chunki qahramon yonida yuz berayotgab voqeani o'z xarakteridan kelib chiqib ta'riflaydi.Shu bilan bir qatorda,bunday ichimliklar tantanali marosimlarga xos ekanligini hisobga olsak, Faynberg qahramoni uchun bu uchrashuv muhim bayram ekanligini anglab yetamiz.

Betashvishdek ko'rinar ko'rinar hayot,

Bo'lmagandek go'yoki armon.

Bu o'rinlarda esa avvalo hayot beparvoligi va erkinlikka ishora mavjud. Shu "beparvolik" she'rning umid va zavq shukuhini chuqurlashtiradi. "Bo'lmagandek go'yoki armon" satri hayotdan to'yib, to'laqonli zavqlanib yashash hissini tuydiradi. Xuddi bu hayotda qayg'ular yo'qdek, hamma narsa faqat hozirgina bordek.

Sharob g'amni yuvar ko'ngildan

Bu misralar yuqoridagi uchrashuvga nisbatan bayramdek qarash g'oyasini davom ettiribgina qolmay, uni kuchaytiradi. Sharob orqali g'am ko'ngildan yuvilib ketadi. Lirik qahramon diydor ko'rishmoqlikni shunchalar intizor bo'lib kutiyaptiki, birgina ko'rishmoqlik haqidagi o'ylari uni faqat sharob ichib, hushini yo'qotganidagina tark etadigan hislar alangasiga uloqtirgani ma'lum bo'ladi. "Ko'ngildan yuvilib ketish" metaforik ifodasi bilan qalbdagi g'amlar vaqtinchalik bo'lsa-da yiroqlashishini ko'rsatadi. Qahramonning bundan boshqa yo'li ham yo'q boshqachasiga visol haqidagi o'ylar gulxanidan o'zini qutqarolmaydi ham.

Qanotlarin yig'ib ohista,

Muhabbat va ishonch ikkovlon,

Yonimizga o'ltirar asta.

Endigi holatda biz uchrashuvga bo'lgan umidning asta-sekin yo'qolib borayotganini sezamiz. Sababi shundaki, she'rning asosiy motivlari bo'lmish "muhabbat" va "ishonch" nochor "qanotlarini ohista yig'moqda". Ular she'r boshidan beri qahramonga uchrashuv uchun ilhom berib turgandi. Endi ular ham charchadi qahramonning "yoniga o'ttirmoqda". "Qanotlar" simvolik ma'noda erkinlik va orzularga ishora qiladi. Lekin afsuski, "ishonch" qanotlarini yig'ib qahramonni tark etmoqda. Umidning yo'qolishi go'yoki bu hikoyaning yakuniga yaqin qoldi deyotgandek.

Suhbatlasha olmaymiz ro'y-rost.

Yuqoridagi "ishonch" va "umid" bilan ochiqchasiga suhbat qilib bo'lmasligi endi qahramon dardini og'irlashtiryapti. Shoir bu bilan hatto suhbat qanchalik samimiy, ochiq-oydin bo'lmasin shaxsiy muammolar ham borligini aytiryapti. Chunki endi uchrashish uchun iloh bo'layotgan umid tashqi omilga aylandi. Negaki, qahramon yuragidagi nimalardir ham qiyinchiliklarga bardosh berolmay so'ndi, nobud bo'ldi.

Ikkimizda hamma narsa bor,

Faqatgina umid yo'q, xolos.

Mana she'r yakunida yuqorida keltirgan fikrlarimiz o'z tasdiqini topmoqda. Chindan ham na lirik qahramonda na uchrashuvga chiqishi kerak insonda umid qoldi. Ikki insonda uchrashish uchun hamma sharoit bor. Biroq eng achinarlisi o'sha bor hamma narsa birgina umid tufayli o'z qimmatini yo'qotdi, uning o'rnini bosolishmadi. Hamma sharoit bo'la turib ko'rishmaslik, rostan ham nafaqat ishonch, balki xohish ham tark etganini bildiradi. Bu esa ayni she'rning dramatik yakun

topishiga olib keladi. Lekin oldingi qatorda keltirilga ishoralar kitobxonni shu yakunga ko'niktirib keldi desak ham bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bu she'r sevgi, umid, ishonch, ichki qarama-qarshiliklarda asoslangan hikoya. Faynberg lirik qahramoni bu asarda murakkab ichki kechinmalarga ham ega. Lirik qahramon ko'rishishga juda mushtoq, ammo vaqt o'tishi bilan undagi umid, xohish kuchayish o'rniga sekinlik bilan zaiflashib, oxiri yo'qolib qolmoqda. She'r boshlanishida ishonch, umid, musiqa, shampān-sharob obrazlari orqali muhabbat zamonaviy va hissiyotli uslubda yoritilgan. Har bir qatorda sezilarli tasvirlar, hissiyotlar va ruhiy holatlar bilan she'rning umumiy g'oyasi ochib boriladi. Bu she'rni o'qigach eng kuchli hislar ham oxir oqibat o'z poyoniga yetishini tushunamiz. Vaqt o'tishi bilan hamma hammasi o'zgarishi mumkin. Ishonch ishonchsizlikka, umid umidsizlikka, xohish esa umuman yo'q bo'lgan narsaga joy beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/22992>
2. <https://uz.wikipedia.org/>
3. <https://in-academy.uz/>
4. <https://in-academy.uz/>
5. <https://esiconf.org/>
6. <https://n.ziyo.com/>
7. <https://arboblar.uz/>
8. <https://fayllar.org/aleksandr-arkadivich-faynberg-hayoti-ijodining-bugungikundagi-v2.html>